

“TASDIQLAYMAN”

Qoraqalpog‘iston Respublikasi  
Qishloq xo‘jaligi vaziri



Z.Ziyadullayev

“ ” 2023-yil

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligida o‘tkazilgan  
yig‘ilish  
BAYONI № 1

“06” *fevral* 2023-yil

Nukus shahri

Raislik qildi Z.Ziyadullayev - Qoraqalpog‘iston Respublikasi  
Qishloq xo‘jaligi vaziri  
Ro‘yhat bo‘yicha - Vazirlikning barcha bo‘lim  
boshliqlari hamda barcha tuman  
Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshliqlari  
(ro‘yxat bo‘yicha).

**KUN TARTIBI:**

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2023-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Rayosati Majlisining 2023-yil 23-yanvardagi 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, idoralar, xo‘jalik mirlashmalari va hokimliklarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish natijalari to‘g‘risidagi 9-sonli bayoni ijrosini ta‘minlash haqida”gi 3-sonli rayosati majlisi bayoni ijrosi yuzasidan

(Z.Ziyadullayev, F.Nurmuhammadov, E.Edenbaev, Q.Bekbergenov, K.Nurniyazov,  
K.Ubeydullaev, J.Madramimov, K.Otepov, M.Kurbaniyazov, Z.Ziyadullayev)

Yig‘ilishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vaziri Z.Ziyadullayev so‘zga chiqib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2023-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Rayosati Majlisining 2023-yil 23-yanvardagi 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, idoralar, xo‘jalik mirlashmalari va hokimliklarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish natijalari to‘g‘risidagi 9-sonli bayoni ijrosini ta‘minlash haqida”gi 3-sonli rayosati majlisi bayoni bo‘yicha vazirlikning barcha bo‘lim boshliqlari hamda barcha tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshliqlari;

Vazirlikga hamda tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limiga qabul qilingan murojatlar 19,6 foiz (163 ta murojaatdan 32 tasi ijobiy) hal qilingan, bu degani murojaatlar bilan shug‘ullanmagan xodimlarga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 181-moddasiga asosan intizomiy chora ko‘rish bo‘yicha Vazirlikning

Xodimlar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassisi vvb J.Madramimovga topshiriqlar berdi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan fuqorolarning murojaatlariga huquqiy tushuntirish berish bilan cheklanib qolingani, bu esa fuqorolarning e'tirozlariga sabab bo'layotganligi natijasida qayta murojaatlar bilan ishlash bo'yicha faoliyati tizimli nazorat va tahlil qilib borilmaganligi sababli Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vaziri Z.Ziyadullayevga qattiq ogohlantirish berilganligi berilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Kun tartibidagi masala yuzasidan barcha vazirning o'rinbosarlari so'zga chiqib hafta davomidagi faoliyatini jadallashtirish, majmua tomonidan reja asosida amalga oshirilgan ishlarni muvofiqlashtirish, ijro intizomini mustahkamlash, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o'z vaqtida va belgilangan muddatida tushuntirish ishlarini hamda javob xatlarini taqdim qilishlari to'g'risida kerakli barcha chora-tadbirlarini ko'rish bo'yicha majmuasidagi mutaxassislarga tushuntirish ishlarini olib borishdi.

Kun tartibidagi masalar bo'yicha yig'ilish ishtirokchilari o'zaro fikr almashinib, yig'ilish

### QAROR QILADI


1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2023-yil 30-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Rayosati Majlisining 2023-yil 23-yanvardagi 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, idoralar, xo'jalik mirlashmalari va hokimliklarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish natijalari to'g'risidagi 9-sonli bayoni ijrosini ta'minlash haqida"gi 3-sonli rayosati majlisi bayoni ijro uchun rahbarlikga olinsin.

2. Hafta davomidagi faoliyatini jadallashtirish, majmua tomonidan reja asosida amalga oshirilgan ishlarni muvofiqlashtirish, ijro intizomini mustahkamlash, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o'z vaqtida va belgilangan muddatida tushuntirish ishlarini hamda javob xatlarini taqdim qilishlari topshirilsin.

3. Fuqorolarning murojaatlariga huquqiy tushuntirish berish bilan cheklanib qolingani, bu esa fuqorolarning e'tirozlariga sabab bo'layotganligi natijasida qayta murojaatlar bilan ishlash bo'yicha faoliyati tizimli nazorat va tahlil qilib borilmaganligi sababli barcha tuman qishloq xo'jaligi bo'limi boshliqlari hamda vazirlikning barcha xodimlari qattiq ogohlantirilsin.

5. Ushbu yig'ilish qarorini ijrosini ta'minlashni nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Bayonlashtirdi:



J.Madramimov